## E-SAYLOV орқали ОАВ вакилини аккредитациядан ўтказиш учун ариза жўнатиш

Жорий йил Марказий сайлов комиссияси томонидан сайлов жараёнларини бошқаришни автоматлаштириш, ортиқча вақт сарфи ҳамда қоғозбозликни қисқартириш мақсадида **“E-saylov”** ахборот тизими ишлаб чиқилди. ОАВ вакиллари сайлов жараёнларининг қай тарзда ўтаётганлигини ёритиб бориш мақсадида ўз вакилларини аккредитациядан ўтказиш учун Марказий сайлов комиссиясига **“E-saylov”** ахборот тизими орқали мурожаат қилишлари мумкин.

Хўш, тизим орқали ОАВ вакилларини аккредитациядан ўтказиш қай тарзда амалга оширилади? Келинг буни қуйидаги мисол орқали кўриб чиқамиз. ОАВ ташкилоти ўз вакилларини аккредитациядан ўтказиши учун энг аввало **e-saylov.uz** сайтига ташкилотнинг **ЭРИ калити** (электрон рақамли имзо калити) ёрдамида киради.




**Эътибор беринг!** ОАВ ташкилоти **e-saylov.uz** тизимига киришда хатолик юз берса, браузер хотирасидаги кешларни тозалаб олиш тавсия қилинади. Бундан ташқари ЭРИ калит билан ёки бошқа жисмоний шахс ҳисоби билан One-ID тизими орқали кириладиган платформаларга аввалроқ кирилган бўлса, One-ID тизими ҳисобидан чиқиш зарур бўлади.

Шундан сўнг тизим ОАВ ташкилотини идоралараро интеграцион платформа ёрдамида текширади. ОАВ ташкилоти давлат рўйхатидан ўтган бўлса тизимга киришга рухсат беради.




Тизимга кирилгач ОАВ вакилини аккредитациядан ўтказиш учун МСКга мурожаат жўнатилади. Мурожаат жўнатиш платформанинг чап устунида жойлашган “Мурожаатлар” рукни оркали куйидагича амалга оширилади:

1. **“Мурожаатлар”** рукни устига босилади.




2. **“Мурожаат яратиш”** тугмачаси босилади.

3. У ердан **“Маҳаллий оммавий ахборот воситалари вакилларини аккредитациядан ўтказиш тўғрисида ариза”** шакли танланади.




4. Янги очилган ойнадан **“Ариза яратиш”** бўлими босилади.




5. Ушбу ойнада ОАВ вакилининг маълумотларини автоматик тарзда шакллантириш учун вакилнинг ЖШШИР, паспорт ёки ID-картасининг серия ва рақами киритилади. Шундан сўнг тизим вакилнинг шахсий маълумотларини автоматик тарзда тўлдиради. Бўш қолган пунктлар ходимнинг “электрон почта манзили” ҳамда “телефон рақами” ариза тўлдирувчи томонидан киритилади. Диққат ходимнинг телефон рақамини киритишда ходим томонидан айни кунларда ишлатилаётган телефон рақам киритилиши талаб этилади. Чунки вакилнинг аккредитациядан ўтганлиги тўғрисидаги СМС хабарнома айнан ўша телефон рақамга жўнатилади.




6. Ходим ОАВ ташкилотида штат бирлиги асосида ишлаётган бўлса тизим **my.mehnat.uz** платформаси орқали ходимнинг иш жойи тўғрисидаги маълумотларни олади. Агар ходим ОАВ ташкилотида шартнома асосида ишлаётган бўлса, аризани тўлдирувчи шахс ходим билан тузилган меҳнат шартномасини платформага юклаши зарур. Агар ходим билан тузилган меҳнат шартномаси ахборот тизимига юкланмаса, ходимни аккредитациядан ўтказиш рад этилиши мумкин.




7. Шундан сўнг ОАВ ташкилотига ҳақидаги маълумотлар аризачи томонидан тегишли катакчаларга ёзиб чиқилади.

8. Барча маълумотлар тўғри тўлдирилганлигига ишонч ҳосил қилгач **“Сақлаш”** тугмаси босилади.




9. Ҳосил бўлган ойнада аккредитациядан ўтказиш учун юборилаётган вакиллар рўйхати пайдо бўлади. Агар аккредитациядан ўтказиш учун юборилаётган ОАВ вакиллари сони 1 нафардан кўп бўлса **“Вакил қўшиш”** тугмаси босилади ва юқоридаги тартибда аккредитациядан ўтказиладиган барча ОАВ вакиллари бирин-кетин киритиб чиқилади.




10. Аккредитациядан ўтказиш учун юборилаётган барча ОАВ вакилларнинг маълумотлари киритиб чиқилгандан кейин **“Давом этиш”** тугмаси босилади. Шунда экранда **“Ариза рақами”**ни киритиш ойнаси пайдо бўлади. Пайдо бўлган катакчага ОАВ ташкилотининг хатларни қайд этиш дафтарига киритилган ушбу аризанинг рақами ёзилади.




11. Платформа янги ойнада текшириб олиш учун жўнатилаётган аризанинг шакли ва иловаларини яна бир бор тақдим этади. Хато ва камчиликлар йўқлигига ишонч ҳосил қилгач платформанинг тепа чап бурчагида жойлашган **“Имзолаш”** тугмаси босилади. Шундан сўнг ариза МСКга кўриб чиқиш учун келиб тушади.




12. ОАВ ташкилоти томонидан жўнатилган ариза 5 кунлик муддат ичида қонунчилик талабларига мувофиқ ўрганиб чиқилади. Ариза қонунчилик талабларига мувофиқ тўлдирилган бўлса, қаноатлантирилади ва бу тўғрисида МСК қарори қабул қилинади.

13. МСК қарори қабул қилингач ОАВ вакили аккредитациядан ўтганлиги тўғрисидаги СМС хабарнома ОАВ вакилининг анкета тўлдиришда киритилган телефон рақамига жўнатилади.

14. Шундан сўнг, ОАВ вакилини аккредитациядан ўтказиш тўғрисидаги МСК қарори ҳамда ОАВ вакилининг QR-кодли гувоҳнома шакли ахборот

тизимида пайдо бўлади. Гувоҳноманинг асл нусхаси МСК томонидан чоп этилади. ОАВ ташкилоти гувоҳномани МСК Матбуот хизмати ёки Матбуот марказидан олиб кетиши мумкин.






ОАВ вакилларини аккредитациядан ўтказиш тўғрисидаги ариза келиб тушгач, ариза МСК Матбуот хизмати томонидан ўрганиб чиқилади. ОАВ вакилини аккредитациядан ўтказишда, ҳужжатларни тақдим этишда ОАВ ташкилоти томонидан хато ва камчиликларга йўл қўйилган бўлса, платформадаги ариза ёнида билдириш белгиси пайдо бўлади. ОАВ ташкилоти билдириш белгиси устига босиб хато ва камчиликларни тўғрилаш юзасидан келтирилган кўрсатмага мувофиқ **1 кунлик муҳлат ичида** хатоларни бартараф этган ҳолда аризани қайта жўнатиши мумкин.



# E-SAYLOV орқали ОАВ вакилини аккредитациясини муддатидан илгари тугатиш юзасидан ариза жўнатиш

“Сайлов кампанияси даврида оммавий ахборот воситалари вакилларини аккредитациядан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом” талабларига мувофиқ қуйидаги ҳолларда ОАВ вакилининг аккредитацияси муддатидан илгари тугатилиши мумкин:

> *ОАВ вакили Сайлов кодекси, оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари, МСКнинг қарорлари талаблари ва ушбу Низом қоидаларини бузганида;*
>
> *ОАВнинг рўйхатдан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳномаси суд томонидан ҳақиқий эмас деб топилган бўлса;*
>
> *аккредитациядан ўтказиш тўғрисидаги аризада ёки унга илова қилинган ҳужжатда кўрсатилган маълумотлар ҳақиқатга мос келмаса;*
>
> *аккредитация қилинган ходим билан ОАВ таҳририяти ўртасида тузилган меҳнат шартномаси бекор қилинганда;*
>
> *ходимнинг аккредитациясини бекор қилишни сўраб ОАВ таҳририяти томонидан МСКга ёзма мурожаат йўлланган тақдирда;*
>
> *ОАВнинг чиқарилиши тўхтатиб турилганида ёки тугатилганида.*

ОАВ аккредитациядан ўтказилган ходимининг аккредитациясини муддатидан илгари тугатиш учун МСКга **“E-saylov”** ахборот тизими орқали мурожаат қилиши мумкин. Бунинг учун юқоридаги тартибда ОАВ ташкилот ERI калити орқали **e-saylov.uz** сайтига кирилади.

1. Платформага киргач **“Мурожаатлар”** бўлими танланади.



2. **“Мурожаатлар”** бўлими ойнаси очилгач, **“Мурожаат яратиш”** тугмаси босилади. Янги очилган ойнадан **“Маҳаллий оммавий ахборот воситалари вакилларини аккредитациясини тугатиш тўғрисида ариза”** бўлими танланади.




3. Ҳосил бўлган ойнада **“Ариза яратиш”** тугмачаси босилади.




4. Янги саҳифадаги катакчаларга аккредитацияси муддатидан илгари тугатилиши зарур бўлган ОАВ вакилининг ЖШШИР, паспорт ёки ID-картасининг серия ва рақами киритилади.




5. Шундан сўнг, пастдаги катакчага ОАВ вакилининг аккредитацияни муддатидан илгари тугатилиш сабаби асослантирилган тарзда ёзилади. Агар ходимнинг аккредитациясини муддатидан илгари тугатилиши сабаби ОАВ ташкилотидан ишдан бўшатилганлиги бўлса, ишдан бўшатилганлик тўғрисида буйруқ рақами кўрсатиб ўтилиши зарур.

6. Барча маълумотлар киритилганидан сўнг **“Сақлаш”** тугмаси босилади.




7. Аккредитацияси муддатидан илгари тугатилиши зарур бўлган бошқа ходим мавжуд бўлмаса, **“Давом этиш”** тугмаси босилади. Шунда экранда **“Ариза рақами”**ни киритиш ойнаси пайдо бўлади. Пайдо бўлган катакчага

ОАВ ташкилотининг хатларни қайд этиш дафтарига киритилган ушбу аризанинг рақами ёзилади.




8. Платформа янги ойнада текшириб олиш учун жўнатилаётган аризанинг шакли ва иловаларини яна бир бор тақдим этади. Хато ва камчиликлар йўқлигига ишонч ҳосил қилгач платформанинг тепа чап бурчагида жойлашган **“Имзолаш”** тугмаси босилади. Шундан сўнг ариза МСКга кўриб чиқиш учун келиб тушади.




9. Ариза 5 кунлик муддат ичида кўриб чиқилади. Келтирилган сабаблар ўрганиб чиқилгач, ариза асосли бўлса МСК томонидан қаноатлантирилади.

**Ариза ҳолати билан платформанинг “Мурожаатлар” бўлими орқали, ОАВ вакилининг аккредитациясини муддатидан илгари тугатиш тўғрисидаги МСК қарори билан “Қарорлар” бўлими орқали танишишингиз мумкин бўлади.**